

O'QUVCHILARNI PIRLS TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHGA O'RGATISH

Dadaxonova Faridaxon Bahodir qizi

Shahrixon tumani 40-umumiy orta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” shiori ostida Uchinchi Renessans ostonasida turgan Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli yaratuvchanlik va bunyodkorlik ishlarini, xususan, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, davlatimiz rahbarining “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan fikrlari maktab ta'limi tizimining oldiga ham qator yangi vazifalar, yangi islohotlarni qo'yganligini anglaymiz. Ayniqsa, globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi davrda ta'lim sifatini baholash jarayoni davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro baholash dasturlari mamlakatlar o'quvchilari bilimini taqqoslash, ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda uni rivojlantirish yo'llarini belgilash imkonini beradi. Shunday tadqiqotlardan biri – PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) bo'lib, u boshlang'ich ta'lim bosqichidagi o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajasini o'lchashga qaratilgan. 2021 yilda o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida mamlakatimizdagi 4-sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016 yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021 yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan ob'ektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga

ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi. Maktab ma'muriyati so'rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi. Tadqiqotning 2016 yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. Mazkur davlatlarda o'qish savodxonligi bo'yicha yuqori natijalar quyidagi omillar bilan bog'liq: uydagi kitoblar va raqamli qurilmalarning mavjudligi, ziyoli ota-onalar va ularning kitobga bo'lgan muhabbati, bola maktabga borgunga qadar o'qish-yozishni o'rganganligi hamda maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichining yuqoriligi.

PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni PIRLS topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatish. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish. Har xil janrdagi asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. O'qish savodxonligi o'quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o'sishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, PIRLS ta'lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta'sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi.

O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita maqsadiga qaratilgan: Bular: badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish. PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to'rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g'oyalar yoki ma'lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xalqaro PIRLS baholash dasturi boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasini aniqlash va ta'lim sifatini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot nafaqat o'quvchilarning matnni o'qib tushunish darajasini o'lchaydi, balki ularning fikrlash, tahlil qilish va ma'lumotlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham baholaydi. O'zbekistonning PIRLS tadqiqotlarida ishtiroki mamlakat ta'lim tizimining xalqaro maydondagi o'rnini belgilash, ilg'or tajribalarni o'rganish va mahalliy o'quv dasturlarini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Natijalar ta'lim siyosatini shakllantirish, o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, PIRLS dasturining ahamiyati faqat reytinglarda yuqori o'rin egallash bilan cheklanmay, balki o'qitish jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, o'quvchilarda mustaqil o'qish va ijodiy fikrlash madaniyatini shakllantirish imkonini berishidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Matchonov S., va boshq “O‘qish kitobi” 4-sinflar uchun darslik uchun darslik, “Yangiyo‘l poligraf servis” 2017

2.Boymurodova G., Sattorova X., Muslimova Sh., Kabilova Z., Saydaliyeva G., Karimova F. O‘qish: 4-sinf. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.-T.: “Sharq” 2017.

3.H.Bakiyeva, N.Ahmedova, N.Azizova, D.Nosirova, B.Teshaboyeva, U.Ismoilova, B.Egamberdiyeva “Savodga o‘rgatish darslari”.-T.: “Extremumpress”, 2014. -119 b

4.PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS